

**MIRZO BEDIL MADH ETGAN BOBURIY SHAHZODA MUHAMMAD
A’ZAMSHOH KIM BO‘LGAN ?**

Qorayev Sherxon Po‘latxonovich

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet
dotsenti, (PhD).*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boburiylarning buyuk hukmdori Avrangzeb Olamgirning adabiyotsevar o‘g‘li Muhammad A‘zamshoh hayoti va faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Mazkur boburiy shahzoda atrofida adabiyot ahlini to‘plab, mushoira kechalari o‘tkazishni xush ko‘rgan. Mashhur shoir Abdulqodir Bedil ham ko‘plab shoirlar qatori boburiy shahzodaning adabiy majlislarida qatnashib, unga bag‘ishlangan qasidalarini yig‘in ahliga havola qilgan. Ushbu adabiy anjumanlarda Muhammad A‘zamshohning singlisi shoira Zebunnisobegim ham ishtirok etgan. Boburiy shoira Zebunnisobegim, Mirzo Bedil kabi so‘z san‘atkorlari kamolotida hamda mumtoz adabiyot taraqqiyotida A‘zamshoh huzurida o‘tkazilgan adabiy majlislar muhim rol o‘ynagan.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy kechalar, Abulma‘oniy Mirzo Abdulqodir Bedil, qasidalar, g‘azallar, ta‘rixlar, she‘riy devon.*

KIRISH

Dunyo adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonlar, adabiy muhitlar, saroy adabiyoti vakillari merosini tadqiq etish yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar fan tarixi asosida uning nazariyasi taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganish va uni yangi ma‘lumotlar bilan boyitish, ayniqsa, sobiq ittifoq davrida sinfiylik nuqtai nazaridan o‘rganilmagan saroy adabiyoti hamda hukmdorlar ijodi va sultonlar huzuridagi adabiy majlislar tarixini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, adabiyotni umumadabiy jarayon bilan bog‘lab, muayyan tarixiy aspektda xolis o‘rganish ustuvor vazifalardan biri. Yangi O‘zbekistonimizda ham mustaqillik yillarida o‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgani hech kimga sir emas, jumladan, hukmdor-shoirlar va saroy adabiyoti vakillari ijodi keng ko‘lamda o‘rganildi, ijodkorlarning devonlari nashr etildi.

Albatta, mumtoz adabiyotining katta qismi saroyda yaratilganidan hamda adabiy yig‘inlar milliy adabiyotni rivojlanishida muhim omil bo‘lganligidan kelib chiqsak, saroy adabiyoti va adabiy yig‘inlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Ilgari bu mavzu o‘rganilmagan. Binobarin mumtoz adabiyoti tarixi, adabiy yig‘inlar hamda mumtoz adabiyot vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda ham ma‘naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda hamda “O‘zbekiston -2030” strategiyasidagi belgilangan ta‘lim va fan sohasini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta‘minlanishiga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Boburiy shahzodalardan Muhammad A‘zamshoh she‘riyatsevar shahzodalardan biri bo‘lib, Bengaldagi saroyida shoirlarni to‘plab adabiy kechalar o‘tkazgan. Boburiylarning eng buyuk hukmdorlari Avrangzeb Olamgirning o‘g‘li bo‘lgan A‘zamshoh manbalarda “maqtovli xulq – atvor sohibi” deb zikr etilgan. Tarixchi Muhammad Musta‘idxon Soqiyning yozishicha, “Kichik yoshidan husni tarbiya ahvoliga ta’sir ko‘rgazib, ma’no va suratda kamolga yetib, turli ilmlardan bahra topdi. Onhazrat (Avrangzeb) xilofat koni bu gavharining yaxshi avzoyi va xayrli atvoridan zavqlanib, surguga to‘lar edi. Shijoat va g‘ayrat ko‘rsatishda o‘z tengqurlariga ko‘ra sobitqadam, qo‘rqmas va oliyhimmat edi. Onhazrat donolik daftarining debochasi bo‘lgan bu shahzoda bilan suhbat qurishni yaxshi ko‘rardi”.

Boburiylar shahzodasi A‘zamshoh huzurida ilmiy va adabiy suhbatlar tashkil etilgan. A‘zamshoh ayniqsa, saroyda o‘z davrining mashhur shoirlari ishtirokida mushoira kechalari tuzishni xush ko‘rgan. Yetuk shoira Zebunnisobegim “ijodining shakllanishi va kamolga yetishida adabiy muhitning ta’siri kuchli bo‘lgan. Ayniqsa, akasi A‘zamshohning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi, saroyida bo‘lib turadigan mushoiralar unda she‘riyatga havas uyg‘otadi. Yetuk shoir va olimlar bilan tanishadi. Ayniqsa, Zebunnisobegimning Bedil bilan (A‘zamshohning adabiy majlislarida) mushoiralar qilishi ikki buyuk iqtidor mehnatiga barhayotlik bag‘ishlagan”. A‘zamshohning majlislarida Abdulqodir Bedil doimiy ishtirok etgan hamda ushbu adabiyot kechalarida shoira buyuk so‘z san‘atkori bilan muntazam muloqot qilish baxtiga muyassar bo‘lgan.

Manbalarda yozilishicha, Abulma‘oniy Mirzo Abdulqodir Bedil A‘zamshohga uch yil xizmat qilib, so‘ng saroydan ketib o‘z umrini erkin va mustaqil ijodga, ilm – fan va adabiyotga bag‘ishlagan. Biroq, Ibrohim Mo‘minovga ko‘ra esa, “Mirzo Bedil Avrangzebning o‘g‘li Muhammad A‘zamshoh xizmatida yurgan paytida shahzoda undan o‘ziga atab madh yozishni so‘raydi, ammo Bedil bu taklifni rad qiladi va natijada uning xizmatidan ketishga majbur bo‘ladi”. Holbuki, shahzodaga xizmat qilgan yillari shoir Bedil boshqa shoirlar qatori A‘zamshohni madh etib she‘rlar yozgan va o‘z qasidalarini saroydagi adabiy majlislarda o‘qigan. Shoir devonidagi quyidagi qasida aynan Muhammad A‘zamshohga atalgan.

Habbazo, xurshedi qudratmanzari avji yaqin,
Hukmfarmoi salotin, muttakoi olamin.
Sohibi ilmu xudovandi jahon, muxtori dahr,
Volii davlat, panohi millatu iqboli din.
Vorisi sohibqiron sulton Muhammada‘zam on,
K-az guli madhash zabon dorad chaman dar ostin.
On ki molad oftobi charx bo on avji qadr,
Sandali noz az g‘ubori xoki rohash bar jabin.
On ki dar oinai masadnamoi botinash
Ma’nii rozi jahon paydost chun naqsh az nigin.
Peshi qadrash charx rif‘at mekunad taslimi xok,

Bo viqorash ko‘h tamkin meguzorad bar zamin.
Gar zi judash moyai nisbat barad daryovu kon,
Qatrai gavharrez gardad, sang yoqutofarin.
V-ar nasimi xulqi o‘ boshad saru bargi bahor,
Bo‘i gul xirman kunad xor az durushtihoi kin...
Mekunad Bedil duoi davlati poyandaash,
Mavji omin metarovad az labi Ro‘hulamin.
To jahon boshad, havoxohash ba gulzori tarab
Bod be tashvishi g‘am bo shohidi maqsad qarin.
Hosidash dar kisvati mijgoni motamdidagon,
To qiyomat boshad az ashki nadomat xo‘shachin.
Dar xayoli rishtai umri abadpayvandi o‘,
Hamchu so‘zan ko‘r gardad didai ko‘tohbin.

Shoirning devonidan ma’lum bo‘ladiki, Mirzo Bedil A’zamshohni madh etishdan tashqari, Bahodirshoh, Farrux Siyar, Jahondorshoh, Shohijahon, Akbarshoh, Kombaxsh kabi boburiy hukmdorlar va shahzodalar vasfiga ham go‘zal qasidalar, g‘azal va ta’rixlar yozgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, shoir mazkur boburiylarning adabiy yig‘inlarida ham ishtirok etgan, bo‘lishi mumkin. Bedil devonida ikki qasida Avrangzebga, bir qasida Muhammad A’zamshohga, Kombaxshga, madhiya ta’rixlar Muiziddin Jahondorshoh va Farrux Siyarlarga bag‘ishlangan. Adabiyotshunos Sh.Shomammedovning yozishicha, Bedil o‘zining 77 yillik hayotida (1721 yilda vafot etgan) 14 boburiy podshohni ko‘rdi. Shulardan 9 nafari shoir umrining oxirgi yillarida hukmronlik qilganlar”.

Mirzo Bedil “Shohi Olamgir, ya’ni hazrati Avrangzeb” huzuridagi suhbatlarda ham qatnashgan. Avrangzeb Olamgirga bag‘ishlab qasidalar, g‘azallar va ta’rixlar yozgan.

Atoi fayzi azal kard gavhare taslim,
Ba shohi mo, ki javonbaxt az o‘st olami pir.
Muhiti adlu jahoni saxo sipehri karam,
Bahori dinu duval, iftixori toji sarir.
Shahanshahe, ki kashad zo‘ri bozui hukmash,
Zi ko‘hsor ragi sang hamchu mo‘ zi xamir.
Tavon shikoft ba imdodi royi ravshani o‘
Zi rangi xomai naqqosh ma’nii tasvir...
Surushi shavq ba in mujda to bashorat dod,
Zi joi xesh bajastam chu ma’ny az takrir.
Sariri kilki guharsanj soli in ta’rix,
Furo‘g‘ dod zi “sham’i muniri Olamgir”.

Buyuk boburiy shahanshoh Muhammad Avrangzeb 1707 yilda 88 yoshida vafot etishi bilan taxt uchun kurashlar boshlanib, saltanatda inqiroz yuzaga keladi. O‘rnini Bengalda voliy bo‘lib turgan o‘g‘li Muhammad Shahid A’zamshoh egallaydi va saltanatda uch oy hukmdorlik qiladi. Ammo, Avrangzeb o‘z o‘rniga boshqa o‘g‘li Kobul hukmdori Shohi Olamni o‘tirishini vasiyat qilgandi. Bahodirshoh nomi bilan mashhur Shohi Olam otasi

taxtiga o‘tirish uchun qo‘shini bilan Agraga yo‘l oladi. U kelganicha esa ukasi A‘zamshoh ota taxtini egallagandi. Shundan so‘ng aka-ukalar o‘rtasida urush boshlanadi. A‘zamshoh kobulliklar qo‘lida halok bo‘ladi. Taxtga 63 yoshli Shohi Olam o‘tiradi. Shoh Olam atigi 5 yil, ya‘ni 1512 yilgacha podshohlik qiladi. Hind rojalari unga qarshi birlashib, urush boshlagan paytda to‘satdan olamdan o‘tadi. Hukmdorning ikki o‘g‘li birdaniga taxtga da‘vogarlik qila boshlaydilar. Rojalar bir chetda qolib, aka – ukalar o‘zaro jangga kirishadilar. Jahondorshoh 1712 yil martida ukasi Azimushshohni o‘ldirib, taxtga o‘tiradi.

Tegi Jahondori zamon ro‘zi ki shud barqofarin,
Iqboli Kaysar dast shust az Zuhra to xoqoni Chin.
Oroishi kavnu makon, farmonravoi insu jon,
Nuri zaminu osmon, ya‘ni muizzi mulki din.
Shohe ki peshi shavkatash past ast lofi sarkashon,
Gar pashshai o‘ dam zanad, bar ko‘h barbandad tanin.
Az mash agar davri amal bar charx girad muxtasar,
Dar hafta gum gardad kurun, oyad ba shahr andar sinin.
Adlash sipehri ma‘dalat, judash muhiti makrumat,
Zotash baqoi mamlakat, nomash jahonbaxshi nigin.
Har jo kamolash bishnavy, harfi shohon bar toq neh,
Oyoti Qur‘on diday, manqushi Zand, Usto mabin.
Axloqi in shohi jahon yaksar bihishtinshokun ast,
Harfe zi xulqash yod kun, dar zeri chati gul nishin,
Chun sham‘ yak bor on ki bast ehromi tavfi dargahash,
To xok gashtai sajdaash bar do‘sh mebandad jabin...
Z-in mamlakat dar hech so‘ mujgon nameoyad furo‘,
Shud zeri poyi taxti o‘ Hinduston arshi barin.
Imro‘z bo chandin rajo bar ostoni kibriyo,
Shud komyobi muddao har kas ba naqshe az jabin.

Lekin, bir yilga yetar – yetmas, 1713 yilda jiyani Azimushshohning o‘g‘li Farrux Siyar qo‘shini kelib, Agra yonida Jahondorshohni tor-mor etadi. Jahondorshoh taxtni saqlab qolish maqsadida Usmonlilar sultoniga o‘zini vassal ekanini izhor qilib, Istambulga oltin-kumush yuboradi. Ammo turk hukmdori unga yordam bermaydi. Dehliga qochib kelgan Jahondorshoh ushlanib qamoqqa olinadi va Agrada Farrux Siyar o‘zini shahanshoh deb e‘lon qiladi.

Shahi Farruxsiyar xurshedi tahqiq,
Jahoni ma‘dalat, me‘roji odob.
Falakqadry ba iqbolash musallam,
Shahanshohy ba zoti o‘ sharafyob.
Zi nuri adli o‘ dar mahfili dahr,
Tarab guljo‘sh chun gavhar ba mahtob.
Jahon bar amn menozad ba ahdash,
Chu dar chashmi buton kayfiyati xob.

Ba aqd ovard maknun gavharero,
Ki shud az rashki on mah bar falak ob.
Payi soli muborak xomai fikr,
Ba sozi tahniyat mexost mizrob.
Zi xotif in nodo omad, ki binvis:
«Qironi moh bo mehre jahontob».

XULOSA

Shundan so‘ng amakisini o‘ldirib, boshini unga olib kelishlariga buyuradi. Jahondorshohning tanasini Dehlidagi Humoyun Mirzo maqbarasiga dafn etishadi. Boshi esa Agraga olib ketiladi. Farrux Siyar o‘zining lashkarboshilari aka – uka Sayyid Hasan va Husayn Alilar tomonidan 1719 yilda taxtdan chetlatilib, qamoqqa tashlanadi. Keyin esa uning ko‘zlari ko‘r qilinib, o‘ldirib yuboriladi. O‘rniga ukasi Rofi’ ud-darajotni taxtga o‘tqazishadi. Ammo kasal podshoh ko‘p o‘tmasdan taxtni ukasi Shamsiddin Shohijahonga topshiradi. Shohijahon uch oydan so‘ng vafot etadi. Aka – uka lashkarboshilar uning o‘rniga jiyan Muhammadshohni taxtga o‘tqazishadi. Bu hukmdor davridan boburiylar saltanati quyoshi bota boshlaydi. Mazkur hukmdorlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Abdulqodir Bedil Bahodirshoh (Shohi Olam), Jahondorshoh, Farrux Siyar, Shohijahon kabi boburiy hukmdorlar va shahzodalar vasfiga g‘azal va ta’rixlar yozgan. Ammo, shoirning hayoti va ijodiy kamolotida shahzoda A‘zamshoh muhim rol o‘ynaganini alohida ta’kidlashni istardik. Chunki, A‘zamshoh huzurida o‘tkazilgan she‘riyat anjumanlari nafaqat Mirzo Bedil ijodi rivojida, balki mumtoz adabiyot va san’at taraqqiyotiga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Ahmad Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. T.: Azon kitoblari, 2021.-B.567.
- 2.Abdulqodiri Bedil. Osor. Dar hasht jild. Jildi hashtum. Tahiyai matn bo sharhi lug‘ot va tavzehot az Bobobek Rahimy.Dushanbe: Adib, 2016.-S.300.
- 3.Ibodova N. Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasi tahlili. /“Ma’naviy meros va III Renessans asosini yaratish masalalari: izlanishlar, tadqiqotlar, istiqbollar mavzusidagi xalqaro anjuman maqolalari to‘plami. Samarqand, 2023.-B.422.
- 4.Muhammad Musta’idxon Soqiy. Boburiy podshoh Avrangzeb. T.:Movarounnahr, 2013.-B.418-419.
- 5.Mo‘minov I. So‘zboshi. Mirzo Bedil. Ruboiylar. Sh.Shomuhamedov tarjimasi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1974.-B.5.
- 6.Shomuhamedov Sh. So‘zboshi. Mirzo Abdulqodir Bedil. Ruboiylar. Sh.Shomuhamedov tarjimasi. T.: O‘zbekiston Kompartiyasi MK nashriyoti, 1986.-B.5.
- 7.Qorayev Sh. Bobur va boburiy ijodkorlar tarixi.//International journal of scientific researchers. [https:// worldyjournals. com/ index. php/ IJSR/ article/view/3286](https://worldyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/3286). –Toshkent, Vol.5, No. 2 (2024).-P.763-814.

8. Qorayev Sh. Boburiy podshoh Shohjahon va uning ijodkor avlodi tarixi. // Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2-son 9 – to‘plam. - Toshkent. 2024, may. - B.238-261.
9. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. - Qarshi: “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019. - B.180.
10. Qorayev Sh. Navoiy majlislari. - Toshkent: Lesson – Press, 2020. - B.312.
11. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. - B.262.
12. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. - Qarshi: Intellekt, 2023. - B.262.
13. Qorayev Sh. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiy ijodkorlar tarixi. - Qarshi, Ilm-fan va ma’naviyat, 2025. - B.110.
14. http://xqq.namangan.uz/index.php-option-com_content-view-article-id-189:zebunniso-begim
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/jafar-muhammad-abulmaoniy-manaviyati-bedil-hayoti-va-falsafiy-qarashlariga-chizgilar.html>
16. <https://www.wikiwand.com/tg>